



TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSE HELPS LEARNERS DEVELOP LANGUAGE SKILLS RELATED TO THEIR FUTURE PROFESSIONS. IT MAKES LEARNING MORE PRACTICAL AND MOTIVATION

Temirova Sabina
SamSIFL
Samarkand, Uzbekistan

Annotatsiya: English for Specific Purposes (ESP) yoʻnalishining TEFL tizimidagi oʻrni va ahamiyati tahlil qilinadi. ESPning asosiy maqsadi oʻquvchilarning kasbiy hamda akademik ehtiyojlariga mos ravishda ingliz tilini oʻrgatishdan iborat ekanligi yoritiladi. Maqolada ESPning turlari, oʻqitish metodlari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda kommunikativ yondashuvlarning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ESP orqali talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning xalqaro muloqotga tayyorligini oshirish va amaliy til koʻnikmalarini shakllantirish masalalari koʻrib chiqiladi. Tadqiqot natijasida ESP taʼlimi ingliz tilini samarali va maqsadli oʻqitishda muhim vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit soʻzlar: ESP, ingliz tili, kasbiy taʼlim, kommunikativ metod, pedagogik texnologiyalar, akademik ingliz tili, kasbiy kompetensiya.

Hozirgi kunda taʼlim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari oʻquv jarayonida qoʻllashga boʻlgan qiziqish, eʼtibor kuchayib bormoqda, bunday boʻlishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha anʼanaviy taʼlimda oʻquvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga oʻrgatilgan boʻlsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini oʻzlari qidirib topishlariga, mustaqil oʻrganib, taxlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham oʻzlari keltirib chiqarishlariga oʻrgatadi. Oʻqituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yoʻnaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ilmiy tadqiqotlar va amaliy misollar asosida ushbu texnologiyalar natijadorlikni oshirishi, inklyuziv taʼlimni ragʻbatlantirishi va talabalarni raqamli kelajakka tayyorlashidagi ahamiyati muhim oʻrin tutmoqda. Shuningdek, raqamli tafovut va oʻqituvchilarning texnologik tayyorgarligi kabi muammolar ham koʻpchilikni eʼtiborini tortmoqda.

Zamonaviy oliy taʼlim transformatsiyasi sharoitida oʻquv jarayoniga interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda oliy taʼlim muassasalarining (OTM) asosiy vazifasi talabaga faqatgina nazariy bilimlar bazasini berish emas, balki unda metakognitiv koʻnikmalarni yaʼni oʻz-oʻzini oʻqitish va doimiy rivojlanish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir

Anʼanaviy taʼlimning "ekvivalent almashinuv" (oʻqituvchi beradi talaba qabul qiladi) modeli oʻrnini bugun evristik va tadqiqotchilikka asoslangan taʼlim egallamoqda. Oliy taʼlimda professor-oʻqituvchining funksiyasi axborot uzatuvchidan akademik tyutor va mentor darajasiga koʻtarilmoqda. Talaba endi passiv tinglovchi emas, balki oʻquv kontentini qidirib topuvchi, uni tahlil qiluvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi subʼektga aylanadi. Bu esa oliy maʼlumotli kadrlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini taʼminlovchi asosiy omildir.[5,805]⁷⁵

⁷⁵ OLIY TAʼLIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ESP OʻQITISHNING SAMARALI INTEGRATSIYASI
<https://share.google/uOw6yNRJ2eLXA9Yqp>



Bugungi kunda o'qituvchilardan nafaqat mavzu yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lish balki o'quvchilar bilan kommunikatsiya paytida mavzuni yetarli darajada tushuntirish, mavzular qiziqarli o'ziga tortadigan bo'lishi vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi, o'quvchi va o'qituvchi orasida umumiy til ya'ni bir –birini tushunishi juda muhim. Bundan tashqari yana bir muhim hislatlardan biri bu o'qituvchining o'quvchi haqida malumotga ega bo'lishi. Masalan, o'quvchining qiziqishidan xabardor bo'lish va tilning kerakli tomondan tahlil qilib o'rgata olish juda muhim omillardan biridir. Har bir til organuvchining shaxsiy talablaridan kelib chiqqan holda ular hohlaydigan aspektga urg'u berish til o'rganish samaradorligini ikki baravar oshirish xususiyatiga ega.

Bugungi globallashtirish davrida ingliz tili xalqaro muloqot, akademik faoliyat va kasbiy rivojlanishning muhim vositasiga aylandi. Shu sababli uni samarali o'rgatish masalasi zamonaviy ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tilni muvaffaqiyatli o'zlashtirish ko'plab omillarga bog'liq bo'lsa-da, ulardan eng muhimlaridan biri motivatsiyadir.

Motivatsiya o'quvchining o'rganishga bo'lgan qiziqishi, maqsadga intilishi va muntazam harakatini belgilaydi. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchilar darslarda faolroq qatnashadi, mustaqil ishlashga ko'proq moyil bo'ladi va til ko'nikmalarini tezroq rivojlantiradi. Shu bois motivatsiya masalasi nafaqat psixologik, balki metodik jihatdan ham muhimdir[5,102].

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va onlayn platformalarning rivojlanishi motivatsiyani oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Interaktiv ilovalar, gamifikatsiya, sun'iy intellekt asosidagi tizimlar va virtual muhitlar o'quv jarayonini yanada qiziqarli va moslashuvchan qilmoqda.

Motivatsiya va uning asosiy turlari: Til o'rganishda motivatsiya asosan ikki turga bo'linadi: ichki va tashqi motivatsiya.

Ichki motivatsiya o'quvchining shaxsiy qiziqishi, bilim olish istagi va o'z maqsadlariga erishishga bo'lgan intilishi bilan bog'liq. Masalan, ingliz tilini sayohat qilish, xalqaro aloqalarni kengaytirish, ilmiy faoliyat yuritish yoki kasbiy rivojlanish uchun

Motivatsiyaning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganish ichki motivatsiyaning namunasidir. Bunday motivatsiya barqarorroq bo'lib, o'quvchini uzoq muddat davomida faol saqlab turadi[2,15].

Tashqi motivatsiya esa baho, sertifikat, mukofot, ota-ona yoki o'qituvchining rag'batlari kabi tashqi omillar bilan shakllanadi. Bu turdagi motivatsiya ayniqsa boshlang'ich bosqichlarda muhim bo'lsa-da, samarali natija uchun u ichki motivatsiya bilan uyg'unlashishi lozim. O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'qitish va o'rganishni ommalashtirish, ta'lim sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarni joriy etish so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan bir qator muhim farmon va qarorlar imzolangan. . Sohadagi qo'shimcha chora-tadbirlar va yangilanishlar (2022-2024)

PQ-53-son Qaror (02.02.2024): "Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁷⁶.

PQ-239-son Qaror (27.06.2024): "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"⁷⁷. Ushbu qaror bilan Yoshlar ishlari agentligi zimmasiga xususiy o'quv markazlari reytingini shakllantirish va yoshlarni

⁷⁶ <https://share.google/zAQFDfoUjgMGr9eBE>

⁷⁷ <https://share.google/W608rbz2Rbmno0LZk>



rag'batlantirish vazifalari yuklatildi. Til o'rganish tajribasi shuni ko'rsatadiki, aynan ichki va tashqi motivatsiyaning to'g'ri uyg'unligi o'quvchining muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Motivatsiya yuqori bo'lganda o'quvchi topshiriqlarni muntazam bajaradi, o'z xatolarini tahlil qiladi va natijaga erishishga intiladi⁷⁸

Motivatsiya til o'rganish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. U o'quvchilarning yangi til o'rganish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelgan paytda tilni o'rganishda davom ettiradigan asosiy turtki vazifasini bajaradi.

Yangi til o'rganish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. U o'quvchilarning darsdagi faolligi, topshiriqlarni bajarish sifati, mustaqil ta'limga bo'lgan munosabati va til materiallarini o'zlashtirish tezligida namoyon bo'ladi. Motivatsiyalangan o'quvchilar [1,103]:

- grammatika va lug'atni tezroq o'zlashtiradi;
- talaffuz va nutq ko'nikmalarini faolroq rivojlantiradi;
- mustaqil mashg'ulotlarga ko'proq vaqt ajratadi;
- xatolarni tuzatishga va o'z ustida ishlashga tayyor bo'ladi.

Shuningdek, motivatsiya o'quvchining psixologik barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Til o'rganish jarayonida qiyinchiliklar va xatolar tabiiy holat hisoblanadi. Motivatsiya yuqori bo'lsa, o'quvchi bunday muammolarni to'siq emas [3,42].

Xulosa qilib aytganda, motivatsiya til o'rganish jarayonining eng muhim omillaridan biri bo'lib, u o'quvchining bilim olishga bo'lgan qiziqishi, muntazam ishlashi va muvaffaqiyatga erishishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ichki motivatsiya o'quvchini uzoq muddatli maqsadlar sari yetaklasa, tashqi motivatsiya esa dastlabki bosqichlarda rag'batlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ikki motivatsiya turining uyg'unligi esa eng samarali natijani beradi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar, interaktiv platformalar va davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar motivatsiyani yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi va tilni tezroq o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-53-son qarori (02.02.2024). "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-239-son qarori (27.06.2024). "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida".
3. Dörnyei, Z. (2001). *Motivational Strategies in the Language Classroom*. Cambridge University Press.
4. Gardner, R. C. (1985). *Social Psychology and Second Language Learning: The Role of Attitudes and Motivation*. Edward Arnold.
5. Harmer, J. (2015). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Education Limited.

⁷⁸ "O'ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION

JARAYONLAR JURNALI"

20-Aprel, 2026-yil

TIL O'RGANISHDA MOTIVATSIYA VA UNING TA'LIM

SAMARADORLIGIGA TA'SIRI

Jaloldinov Islomiddin Shamsitdin o'g'li



6. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions. *Contemporary Educational Psychology*
7. OLIY TA'LIMDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ESP O'QITISHNING SAMARALI INTEGRATSIYASI <https://share.google/uOw6yNRJ2eLXA9Yqp>

